

**INKLYUZIV TA'LIM BERISHDA VIRTUAL OLAM  
IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH, TA'LIMY  
PLATFORMALAR ZARURIYATI**

*Xatamov Boburjon Qosimjon o'g'li*

*“Mahalla va oila” ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti*

*E-mail: [xatamovboburjon@gmail.com](mailto:xatamovboburjon@gmail.com)*

***Annotatsiya:** Virtual olamdagi darslarni tashkil etish orqali imkoniyat cheklangan o'quvchilar shuningdek shu mavzuga qiziqish bildirgan yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun muhim. Virtual dars beruvchilarning mahorati, texnik imkoniyatlari yuqoriligi. Betoblighi, davolanish sabab maktab darslarida qatnasholmay o'zini ortda qolgan his qilmasligi uchun onlayn darslar orqali bilim olish imkoniyatini yaratib berish. Virtual olamda yaratilgan maxsus fan xonalaridagi virtual harakatlar, tajribalar qilish imkoniyati borligi va uning o'quvchi hayoti uchun xavfsizligi kabi mavzularni yoritib berishga harakat qilingan.*

***Abstract:** By organizing classes in the virtual world, it is important for students with disabilities, as well as good students who have shown interest in this subject. The skills and technical capabilities of virtual teachers are high. To create an opportunity to learn through online classes so that he does not feel left behind because of illness and treatment. An attempt has been made to shed light on topics such as the possibility of virtual actions and experiments in special science rooms created in the virtual world and its safety for the student's life.*

***Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, virtual olam, video darslar, onlayn/virtual dars, internetdagi ta'lim platformalari.*

***Key words:** inclusive education, virtual world, video lessons, online/virtual lesson, educational platforms on the Internet.*

Zamonaviy pedagogikada inklyuziv ta'limning vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim

etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Yangi bilimlarni o'zlashtirishda qiynalayotgan bolalarga virtual olam vositalari yordamida maxsus yaratilgan virtual darslar, videodarslar, animatsiyalar orqali maktabdan so'ng uyida oila a'zolari yordamida o'tilgan darslarni mustahkamlab olishida yangi imkoniyatlar yaratadi. Imkoniyati cheklangan bolalar real hayotdagi qiyinchiliklarni xavfsiz muhitda amaliy o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar<sup>1</sup>. Virtual olam vositalari daganda biz hozirgi vaqtda ommalashgan smartfon, planshet, kompyuter, noutbooklar orqali kiriladigan maxsus yaratilgan platformalar: ijtimoiy tarmoqlar, meta olamlar, video o'yinlar, internet saytlari, ta'lim platformalari kabilarni nazarda tutyapmiz. Hozirgi kunda bunday platformalardan o'quvchilardan tortib o'z ustida ishlovchi o'qituvchilar ham keng foydalanib kelmoqda. Misol uchun fizikadagi qaysidir fizik hodisani tushunish uchun uning animatsiyali ko'rinishini "you tube"ga qidiruvga berish orqali uni nazariy yoki kitobdagi rasmi ko'rinishidan ko'ra tushunish o'quvchi uchun ancha osonlashadi. Qolaversa, respublikamizning barcha maktablarida ham o'z fanining mutaxassislari sifatli va qiziqarli qilib o'tyapti deb ishonch bilan ayto olmaymiz. Mana shunday maktab o'quvchilari o'zi qiziqqan fan mavzulari bo'yicha o'zini qiziqtirgan savollarni internet qidiruv tizimlariga berish orqali respublikamizning eng zo'r mutaxassisi tomonidan tushuntirilgan virtual darsni tomosha qilib mavzuni yaxshi o'zlashtirish imkoni mavjud. Agar o'quvchi xorijiy tillarni yaxshi biladigan bo'lsa rus va ingliz tillarida yana ham kengroq ma'lumotlar topishi mumkin. Chunki o'zbek ilmiy kontenti barcha mavzularni qamrab olganicha yo'q. Hozir o'zbek xalq ta'lim tizimida darsliklardagi ayrim mavzularga qo'shimcha manbalar QR-kodlar orqali berilayotganini ko'rish mumkin. Lekin shu QR-kodlarni faqat qo'shimcha manbalargagina emas, balki, har bir mavzu boshida shu mavzuni respublikadagi eng yaxshi ustozlar tomonidan tushuntirib berilgan sifatli, virtual darsi ham berilsa ayni

---

<sup>1</sup> <https://www.mdpi.com/2071-1050/14/20/13572>  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

muddao bo'lar edi. Bunda ayrim bilimi, tajribasi, texnik imkoniyati kam maktab, o'qituvchining o'quvchilari yaxshi tushunmagan darslarini QR-kod orqali kirib sifatli darsni ko'rib o'zlari yaxshi tushunmagan darsni yaxshiroq tushunib olishlarida muhim va kerakli manba bo'lib xizmat qiladi. Ota-onasi ham unga vazifa qildirishda qiynalmay tayyor video darsni ko'rib unda berilgan vazifani qilgan qilmaganini nazorat qilib borishi mumkin. Qolaversa respublika miqyosida yaratilgan yagona va tizimlashtirilgan bunday platforma malakasini oshirmoqchi bo'lgan o'qituvchilar uchun ham tayyor qoralama vazifasini o'taydi. Mavzu oxirida mavzuga qiziquvchilar uchun qo'shimcha videodars, manba, havolalar ham berib qo'yilsa, shu fan sohasida mutaxassis bo'lishni xohlovchilar uchun tayyor yordamchi bo'lib xizmat qiladi.

Virtual olam imkoniyati cheklangan o'quvchilarga o'zlarini kasalliklari tufayli qaysidir fan bilimlaridan qolib ketishlarini oldini oladi. Balki maktabdan ko'ra sifatliroq bilim berishi ham mumkin. Albatta, imkoniyati cheklangan bola sog'lom tengdoshlari qatori maktabga borib jonli darsda qatnashishi afzal hisoblanadi, sababi bu uning jamiyatga ijtimoiylashishida muhim o'ringa ega. Lekin har doim ham, har kim ham bunday imkoniyatga ega bo'lmasligi mumkin. Virtual dunyoda o'quvchilar darsda faol ishtirok etadilar va doimiy ravishda o'z tajribalaridan bilim orttiradilar. Bundan tashqari, "Texnologiyaning arzonlashuvi, keng ommaga taqdim etilishi va immersiv imkoniyatlarining yaxshilanishi VR ni ta'limda foydalanish uchun nafaqat imkoniyat, balki amaliy vositaga aylantirmoqda"<sup>2</sup>. Virtual olam vositalarini inklyuziv ta'lim oluvchilarida qo'llashga qarshi fikrlar ham bor. Masalan, virtual olamda dars qilyapman deb ota-onasi yoki ustozni aldab u yerda boshqa o'yinlarga kirib darsga kirmaslik xavfi, virtual olamga qaram bo'lib qolish, vazifalar so'ralmasligi, tushunmagan joyni savol qilib berish imkoniyati chegaralanganligi kabilarni aytishadi. Yuqoridagi salbiy taraflari borligini e'tirof etgan holda shuni aytish kerakki, virtual ta'lim platformalarining bo'lishi, uning yo'qligidan yoki mavjud kamchiliklaridan ko'ra ta'lim tizimimizga ancha foydali imkoniyatlar

---

<sup>2</sup> Lege, R. va Bonner, E. Ta'limdagi virtual haqiqat: va'da, taraqqiyot va qiyinchilik. JALT CALL jurnali, 2020-y. 16 (3), 167-180.

<https://doi.org/10.29140/jaltcall.v16n3.388>

yo'lini ochadi. Shuningdek, virtual onlayn darslarda o'quvchilar chat orqali, bir zumda ovozli xabar almashish orqali ham muloqot qilishlari mumkin.

Virtual olamda hozirgi kunda ham turli ta'lim bosqichlari uchun ta'lim platformalari mavjud. Ayniqsa pandemiya vaqtida onlayn ta'lim berish imkoniyatlarini sinovdan o'tkazib oldik. Lekin uning tajribalaridan unumli foydalangan holda bu tajribani davom ettirishimiz lozim. O'quvchi mavjud dars mavzusini internetdan oson topa olishi muhim hisoblanadi. Bunda ota-ona yoki o'qituvchi va darslikning yo'l ko'rsatishi muhim. Ta'lim g'oyalar, mavzular va tajribalar orqali raqamli texnologiyalar yordamida o'rganilishi mumkinligini Covid-19 pandemiyasi davrida butun jahon onlayn darslari tajribasida bilib oldik. Endi bu imkoniyatlarni yanada kengaytirish yo'llarini izlash zarur. "Virtual olam texnologiya va raqamli dasturlar takomillashgani, aholi soni va bilimi oshgani sari kengroq ommaga tarqala boshlaydi"<sup>3</sup>. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar o'quvchilarga bilimlarning ko'plab sohalarini chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Bularni darsliklar, doska va bo'r bilan tasvirlash juda qiyin bo'lar edi. Misol tariqasida kimyoviy reaksiyalar, boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga til xorijiy tilni o'rgatish, matematik masala va misollarni yechish formulalarini tushuntirish kabilar. Odamlar qayerda va qachon o'rganishlarini qayta ko'rib chiqishda o'qituvchilar, maktablar ta'lim-tarbiya jarayonining faqat bir qismi ekanligini tan olishlari kerak. Kichik sinf xonasida 25-35 bolaga hayotda kerak bo'ladigan ko'plab bilim va tajribalar bera olmasligimizni tushunishimiz zarur. Ayniqsa moddiy-texnik baza talab qilingan ta'lim standartlariga to'la javob bermaydigan respublikamizning chekka hududlaridagi maktab o'quvchilarini sifatli ta'lim olishini o'ylash kerak. Virtual darslarning samaradorligi bir qator ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan, masalan ingliz tilini o'rgatishda "yaxshi rejalashtirilgan va ishlab chiqilgan VR ilovalari EFL o'quvchilarining paragraf yozishini rag'batlantirishi mumkin. Joriy tadqiqot natijalari EFL o'qituvchilariga ingliz tilini o'rganuvchilarning yozishni yaxshilash uchun o'z sinflariga VR texnologiyalarini kiritishda yordam berishi mumkin.

---

<sup>3</sup> K.Kluge, M.Rayli tadqiqoti. Virtual olam texnologiya va raqamli dasturlar...: 18-bet.

Shuningdek, EFL darslarida VR ilovalaridan foydalanish EFL o'quvchilarining motivatsiyasini, zavqlanishlarini va jamoada ishlash ko'nikmalarini oshirishi mumkin"<sup>4</sup>. Virtual olam ta'limida o'rganish jarayoni to'rtta devorli bino bilan chegaralanib qolmaydi, balki o'quvchi istalgan vaqtda, istalgan joyda sodir bo'lishi mumkin. Xatto tarix darsida tarixiy davrlarga sayohat qilishi ham mumkin bo'ladi. Virtual olamdagi darsda haqiqiy dunyodan farqli o'laroq, xilma-xil tajribalarni sinab ko'rish imkoniyatlari mavjud. Ushbu tajribalarga misol tariqasida uchish, suv ostida, koinotda suzish yoki turli xil teleportatsiyalarni misol keltirish mumkin. Hozirgi o'quv jarayonlari tabiatan kichik xona muhitida kechadi. Ular geometriyani o'rgatish yoki falsafani o'rgatish uchun qurilgan emas. Virtual ta'lim muhiti esa, ba'zan "haqiqiy"ga o'xshaydi, ta'lim jarayoni chegaralarini kengaytiradi. Masalan shaharni boshqarish, uy qurish, samolyotda uchish, moliyaviy savodxonlikni sinash, huquqbuzarliklarni fosh qilish. Bugungi kunda virtual olamlar ko'proq ijtimoiy tarmoq imkoniyatlarini integratsiyasi orqali rivojlangan onlayn o'yinlar sifatida ma'lum va mashhur. Gartner tadqiqoti ham bunga misol bo'la oladi. Ba'zi virtual olamlar o'yin o'ynash uchungina mavjud. Xattoki ba'zi dunyoning bir qismi sifatida ishlab chiqilgan virtual olamlar ichida ko'plab o'yinlar mavjud.

Boshqa olimlar esa virtual dunyo konsepsiyasi o'yin elementlarini o'z ichiga olmasligi kerak deydi, ular virtual olamlarda aniq obyektiv qoidalar bo'lishi kerak deb hisoblashadi<sup>5</sup>. A.Polka ma'lumotlariga ko'ra, ta'lim muassasalari o'qituvchiga yo'naltirilgan ta'lim modelidan talabaga yo'naltirilgan modelga o'tishlari juda muhim deb hisoblaydi. O'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim modellari ko'pincha yaratuvchi ta'lim nazariyalarini o'z ichiga oladi, bunda o'quvchilar "o'z bilimlaridan foydalanadilar". "Ularga allaqachon tashkillashtirilgan shaklda tushuncha berishdan ko'ra, ular uchun mantiqiy bo'lgan tushunishni faol ravishda quruvchi tajribalar afzalroq"<sup>6</sup>. Virtual olamlar o'quvchilarga virtual makonda rol o'ynash, senariy

---

<sup>4</sup> Khodabandeh, F. Exploring the applicability of virtual reality- enhanced education on extrovert and introvert EFL learners' paragraph writing. *Int J Educ Technol High Educ* **19**, 27 (2022).

<https://doi.org/10.1186/s41239-022-00334-w>

<sup>5</sup> "EDUCAUSE" ta'lim tashabbusi, Educause to'plami... 2006, 1-bet

<sup>6</sup> A.Polka., *Zamonaviy ta'lim usullari...*: 55-bet

[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)

yaratishga, astronom, kimyogar yoki muhandisning mas'uliyatini vaqtincha o'z zimmasiga olishga yordam beradi. Bu orqali o'rganish esa osonroq va o'quvchilar hayoti uchun ancha xavfsizroq hisoblanadi. "Virtual olamlarda o'tkaziladigan o'yinlar va simulyatsiyalar o'quvchining faol ishtirokini va faolligini talab qiladi. O'quvchilar o'yin o'ynash yoki ishtirok etish paytida shunchaki passiv bo'lolmaydilar"<sup>7</sup>

Xulosa. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi. Davolanish uchun maktab darslariga uzoq vaqt qatnasholmagan o'quvchi o'zini noqulay, bilimsiz, tengdoshlaridan ortda qolib ketgandek his qilmasligi uchun virtual/onlayn darslar bo'lishi muhim. Uyingizga borganingizda 15 yoshli qizingiz "you tube" platformasidan foydalanib siz o'rgatmagan taom yoki salat tayyorlab qo'yganini guvohi bo'lgan bo'lsangiz kerak, bu virtual olamning ta'lim berishdagi imkoniyatiga kichik bir misol.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. New Media Consortium, 2017, 18-bet
2. K. Kluge, M. Rayli tadqiqoti. Virtual olam texnologiya va raqamli dasturlar: 18-bet
3. "EDUCAUSE" ta'lim tashabbusi, Educause to'plami... 2006, 1-bet
4. A. Polka..., Zamonaviy ta'lim usullari...: 55-bet
5. Lege, R. va Bonner, E. Ta'limdagi virtual haqiqat: va'da, taraqqiyot va qiyinchilik. JALT CALL jurnali, 2020-y. 16 (3), 167-180. <https://doi.org/10.29140/jaltcall.v16n3.388>
6. Khodabandeh, F. Exploring the applicability of virtual reality- enhanced education on extrovert and introvert EFL learners' paragraph writing. Int J Educ Technol High Educ 19, 27 (2022). <https://doi.org/10.1186/s41239-022-00334-w>

---

<sup>7</sup> Yangi Media konsorsiumi, 2019, 18-19-betlar  
[www.pedagoglar.org](http://www.pedagoglar.org)